

## **KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA TALABALARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN MODELII**

*Muxamedov Shavkat Madjitovich*

*Buxoro davlat pedagogika instituti “Texnologik ta’lim” kafedrasida dotsenti*

*Annotatsiya: Maqolada kredit-modul tizimi asosida texnologik ta’lim yo’nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modelini tuzish uning komponentlari haqida fikr yuritiladi. Jumladan: Kredit-modul tizimiga asoslangan o’quv jarayonining takomillashtirilgan va ta’lim jarayoniga tavsiya etilayotgan modelning maqsad, tashkiliy, mazmun, natija komponentlari tizimli asosda ko’rsatib berilgan. Eng asosiysi o’qitishda kredit-modul tizimi ahamiyati batafsil bayon qilingan. Bu modelda butun bir o’quv jarayoni qamrab olingan. Aloxida xususiyati shundaki, bu modelda kredit-modul tizimida o’qitishning maqsad va vazifalari ham bayon qilingan. bu jarayon uzluksiz nazorat va monitoring bo’yicha davom etishi bakalavr yo’nalishlari uchun 8 yilga magistratura mutaxassisliklari uchun 4 yil etib belgilangan. Ushbu jarayonni to’liq o’zlashtirgan talabalar jarayon oxirida innovasion kasbiy faoliyatga tayyor bo’lajak texnologiya fani o’qituvchisi sifatida yetishib chiqishi metodik jihatdan asoslangan.*

*Kalit so’zlar: kredit-modul, model, komponent, uzluksiz nazorat va monitoring, elektron platforma, dasturiy ta’minot, innovasion, kreativ, kommunikativ, sillabus, tamoyillar*

## **УСОВЕРШЕНСТВОВАННАЯ МОДЕЛЬ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ КРЕДИТНО-МОДУЛЬНОЙ СИСТЕМЫ**

*Мухамедов Шавкат Маджитович*

*Доцент кафедры “технологическое образование” Бухарского государственного педагогического института*

*Аннотация: В статье рассматриваются составляющие создания усовершенствованной модели подготовки студентов технологического образования к профессиональной деятельности на основе кредитно-модульной системы. Например: на системной основе показаны целевая, организационная, содержательная, результативная составляющие усовершенствованной и рекомендуемой модели образовательного процесса на основе кредитно-модульной системы. Самое главное, подробно объясняется важность кредитно-модульной системы в обучении. В этой модели охвачен весь процесс обучения. Особенностью является то, что данная модель также описывает цели и задачи обучения в кредитно-модульной системе. продолжение этого процесса по непрерывному контролю и мониторингу установлено в течение 8 лет для бакалавриата и 4 года для специальностей магистратуры. Он методологически основан на том, что студенты, полностью освоившие этот процесс, в конце процесса будут развиваться как будущие учителя технических наук, готовые к инновационной профессиональной деятельности.*

*Ключевые слова: кредитный модуль, модель, компонент, непрерывный контроль и мониторинг, электронная платформа, программное обеспечение, инновационное, креативное, коммуникативное, sillabus, принципы.*

## AN IMPROVED MODEL OF PREPARING STUDENTS FOR PROFESSIONAL ACTIVITIES BASED ON THE CREDIT-MODULE SYSTEM

Mukhamedov Shavkat Madzhitovich

Associate professor of "Technological Education" Department of Bukhara State Pedagogical Institute

*Abstract: The article discusses the components of creating an improved model for preparing students of technological education for professional activities based on a credit-modular system. For example: on a systematic basis, the target, organizational, content, and effective components of the improved and recommended model of the educational process based on the credit-modular system are shown. Most importantly, the importance of the credit-modular system in training is explained in detail. This model covers the entire learning process. The peculiarity is that this model also describes the goals and objectives of learning in a credit-modular system. the continuation of this process of continuous control and monitoring is set for 8 years for undergraduate and 4 years for graduate specialties. It is methodologically based on the fact that students who have fully mastered this process will, at the end of the process, develop as future teachers of technical sciences, ready for innovative professional activities.*

*Key words: credit module, model, component, continuous control and monitoring, electronic platform, software, innovative, creative, communicative, syllabus, principles.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish. Ushbu talablar asosida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hozirgi davrning muhim vazifalaridan biridir.[1]

Hozirgi vaqtda ta'lim tizimining asosiy maqsadi, barcha sohalarga yetuk mutaxassislarni yetkazib berish, buning uchun ularning ijodiy va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish hamda yuksak sifatlarga ega bo'lgan axloqiy jihatdan yetuk fuqarolarni tarbiyalash, o'qitishda yangi pedagogik innovatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kredit-modul tizimini joriy qilish, o'qitilayotgan fanning metodik modelini takomillashtirishdan iborat.

Kirish: Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash murakkab jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda, ta'lim jarayoning modelini takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Ko'pchilik mualliflar tomonidan bo'lajak mutaxassis kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash modeliga, muayyan bir sifatlarni tushunishni ta'kidlagan.

Pedagogik olim N.F.Tal'yzina tomonidan, bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini modellashtirishni umumdidaktik yondashuvlar asosida ishlab chiqqan bo'lib, ushbu modelda bo'lajak mutaxassis kadrlarni kasbiy faoliyatida kutilayotgan natija, unga erishish yo'llarining uzviyligi va komponentlarini aks etishi zarurligini alohida ta'kidlab, muallif quyidagilarni bayon etadi: "Bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda mutaxassis modelining muammosi o'quv rejalarini kabi o'quv dasturlarining ham mazmunini aniqlashda muhim hisoblanadi" [2].

N.A.Muslimov bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeliga quyidagicha ta'rif beradi – bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli – bu kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlovchi, ma'lum pedagogik sifatlarini ta'riflovchi hamda kasb egasining mustaqil bilim olishi va o'zini rivojlantirishni aks ettiruvchi andoza hisoblanadi [3].

Ilmiy-tadqiqot natijasi asosida bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli-talabalarining mutaxassis darajasiga erishishida auditoriya mashg'ulotlari va mustaqil ta'limda o'zlashtirishi lozim bo'lgan mutaxassislik fanlarini o'qitishda kredit-modul tizimidan foydalanib bilim olish va ko'nikmalarni shakllantirish metodikasining mantiqiy tuzilmasi aniqlanib, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini mutaxassisligi bo'yicha innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli takomillashtirildi [2].

Kredit-modul tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli "Maqsad", "Tashkiliy", "Mazmun", "Natija" komponentlardan tashkil topgan bo'lib, quyida barcha komponentlar izohlangan.

Kredit-modul tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan model komponentlari quyidagicha izohlanadi:

Maqsad komponentidagi malaka talablarida: bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashga qo'yiladigan ilmiy-tadqiqot, loyihaviy-konstruktorlik, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv, foydalanish, xizmat ko'rsatish, pedagogik faoliyat turlari nazarda tutilgan


Model maqsadi: bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish asosida o'qitishdan iboratdir. Tashkiliy komponent modelda bo'lajak Texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish maqsadi asosida, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini o'quv-metodik va didaktik ta'minot asosida innovasion yondashuvlar, dasturiy ta'lim vositalari va tamoyillarga asoslanib, didaktik, tashkiliy-metodik, xususiyatlari o'rganildi. O'quv-metodik va didaktik ta'minot - Texnologik ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha (Darslik, o'quv qo'llanma, metodik qo'llanma, o'quv-uslubiy majmualar) tayyorlangan materiallardan maqsadli va samarali foydalanishni ko'rsatib berdi.

Texnologik ta'lim yo'nalishining o'quv rejasidagi fanlar bo'yicha (Elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma, elektron o'quv-uslubiy majmualar, talabalarni tasavur qilish imkoni bo'lmagan mavzular bo'yicha tayyorlangan 3D animatsiyalar, moddiy-texnik bazasi mavjud bo'lmagan laboratoriya mavzulari bo'yicha tayyorlangan virtual laboratoriyalar, talabalarni mustaqil ta'lim olishini yanada kengaytirishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish maqsadida audio va vizual materiallar) virtual reallikni loyihalash, matematik modellashtirish, axborotlarni aks ettirish nazariyasi, kompyuter muhitini his qilish psixologiyasi, virtual reallik xususiyatlari, didaktikaning asosiy tamoyillari asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot asosida o'rganiladi

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini innovasion kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanishda (Mantiqiy, evristik, integrativ, tanqidiy, kreativ, innovasion) yondashuvlar asosida amalga oshirildi

Mantiqiy yondashuv: mantiq, aql-idrokka murojaat qiladi va bu jarayondagi eng muhim masala – dalillarga asoslangan ma'lumotlarni taqdim etish. Buyangi dalil va ma'lumotlarga duch kelgan kamsonli odamlarga nisbatan samarali bo'lishi mumkin, ammo aksariyat uchun faktlarning o'zigina kifoya qilmaydi. Everestik yondashuv:

interfaol o'qitishning bir usuli everstik suxbat bo'lib, lotincha «to'playman, izlayman» ma'nolarini anglatadi. Bu suxbat usuli bo'lib qadimgi grekcha ko'rinishi Suqrot suhbat deb nomlangan o'qitish tizimiga asoslangan. Shu yo'l bilan mohirona savollar tuzish va o'quvchini qo'yilgan savolga mustaqil ravishda to'g'ri javob topishga yo'naltirish kerak. O'z yo'nalishining psixologik tabiatiga ko'ra - evrestik suhbat bu jamoaviy fikrlash yoki suhbat, muammoni yechimini izlovchi sifatidagi suhbatdir. Shuning uchun pedagogikada bu usul muammoli o'qitish usullaridan hisoblanadi, shu qatorda muammoli izlanuvchi deb nomlanuvchi suhbatdan everestik suhbat psixologik tomondan hech ham farq qilmaydi.



1-rasm. Kredit-modul tizimi asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modeli

Integrativ yondashuv tizimni tashkil etuvchi va uni saqlab qoluvchisifatlar bunda tizim elementlarining turli tumandagi qarama-qarshiligi va shu bilan bir vaqtda ularning hamjihat hamkorligiga asoslanadi. Tanqidiy yondashuv orqali kurs mashg'ulotlari tizimlarni modellashtirish, axborotni tanqidiy baholash va tahlil

qilish, argumentlangan yozma nutqni tayyorlash, holatini tahlil qilishga doir qator amaliy vazifa va topshiriqlarni bajarish orqali talabalarda tahliliy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qildi. Kreativ yondashuv asosida nafaqat o'quv fanlarini o'zlashtirishda yuqori natijalarga erishayotgan, kreativ fikrlashda ijobiy holatlarni qayd etayotgan o'quvchilarga balki ko'proq e'tiborni talab etadigan ijodiy kreativ fikrlash layoqatiga ega bo'lmagan ta'lim oluvchilarga ham birdek e'tiborni qaratish zarur. Innovation yondashuv pedagogik jarayonlarni innovation yondashuv asosida qurish, ta'lim jarayonida talabalarni ijtimoiy faollikka yo'naltirishda qiziqarli, faol, noanaviy, yangi innovation usullardan foydalanilgan holda ularga kasbiy ta'lim asoslarini o'rgatish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Ta'lim tizimlarini odatda ikki toifaga bo'lish mumkin, o'qituvchiga yo'naltirilgan va talabaga yo'naltirilgan ta'lim. O'qituvchiga yo'naltirilgan ta'lim tizimida ta'limga, o'quv dasturlariga, dars jarayonlariga qat'iy ravishda OTM, uni nazorat qiluvchi tashkilot va o'qituvchi hohishi nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunda talabalar nimani, qancha, qanday usulda o'rganishi kerakligi masalalarini belgilashda mehnat bozori vakillari va talabalarning ehtiyojlari, fikrlari ko'p ham e'tiborga olinmaydi. Ta'lim jarayonini boshqarish va tashkil etish ancha markazlashgan tarzda amalga oshiriladi. Bunda yana o'qituvchiga bilimning yagona manbai sifatida qaraladi. Bunday ta'lim tizimida talabalarda mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini ifoda etish, munozaraga kirishish, muammolarga tanqidiy yondashish, o'zlari uchun o'zlari qaror qabul qilish salohiyatlari shakllanmaydi. Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarini innovation kasbiy faollikka tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanishda (Student-centered education, transparent education, improving flexibility, improving student mobility) tamoyillar asosida amalga oshirildi.

Mazmun komponentining asosiy qismini o'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi tashkil etib u kredit-modul tizimi, ta'lim shakllari, elektron platformalar hamda foydalanilgan va o'quv jarayoniga tavsiya etilayotgan metodlardan tarkib topgan.

O'quv jarayonini tashkil etish texnologiyasida Texnologik ta'lim yo'nalishida o'qitilayotgan mutaxassislik fanlaridan o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarini kredit-modul tizimi asosida o'qitishni ishlab chiqish, amaliy mashg'ulotlarning texnologik jarayonlari ob'yektlarini optimallashtirish orqali talabalarning mustaqil-ijodiy ishlash ko'nikmalarining rivojlanishi, o'quv materiallarini g'oyaviylik, ilmiylik, vizuallik, tizimlilik, o'quv axborotlarining izchil bayon etilishi, talabalarning kasbiy sifatlarini rivojlantiruvchi metod, shakl, vosita va texnologiyalarning maqsadli, izchil qo'llanilishi, shuningdek pedagogik faoliyatni tashkil etishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish, zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chiqish ko'nikmalarini qamrab oladi.

Kredit-modul tizimida o'quv reja, dastur (syllabus) mazmunini, metodik va didaktik ta'minotni takomillashtirishdan iborat bo'lib, kredit modul tizimi ma'ruza, nazariy, amaliy, seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv amaliyoti, klinik o'quv amaliyotlar, kurs loyihasi (ishi), shuningdek ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlari bo'yicha haftalik soat yuklamasi va ta'lim oluvchilarning faoliyatini baholash mezonlarini aks ettiradi. Ta'lim oluvchilar tomonidan barcha majburiy faoliyat turlari bajarilgandan va ular baholangandan so'ng kreditlarni to'plash mumkin.

Ta'lim shakllari esa auditoriyada: jamoaviy, guruhli, yakka tartibda: ta'limning

maqsadi, vositasi, natijasi, o'rni hamda ta'lim sub'yektlari ishtirokiga ko'ra farq qiladigan dras sostlarining didaktik tavsifi. Dars, seminar mashg'uloti, amaliy mashg'ulot, laboratoriya mashg'uloti, o'yin, nazariy yoki amaliy mashg'ulot dars shakli vositasida qayd etilib, tadqiq qilinadi va tavsiflanadi.

HEMIS OTM axborot tizimi «Ma'muriy boshqaruv», «O'quv jarayoni», «Ilmiy faoliyat» va «Moliyaviy boshqaruv» axborot tizimlarini o'z ichiga olgan. HEMIS axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarining asosiy faoliyatlarini avtomatlashtirish hisobiga mamuriy xodimlar, professor-o'qituvchilar va talabalarga elektron ta'lim xizmatlarini taqdim etadi. Axborot tizimi oliy ta'lim muassasalarini bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi o'rtasida axborot ko'prigi vazifasini o'taydi hamda oliy ta'lim muassasalaridan olinadigan turli xil ma'lumotlar sonini keskin kamaytirish, ularning qog'oz shaklidan voz kechish va boshqaruv tizimini raqamlashtirishga xizmat qiladi.

Modelda ko'rsatilgan metodlar bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanishni takomillashtirishda quyidagi innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish samarali imkoniyatlarga ega ekanligini e'tirof etish mumkin: "Brainstorming method", "Tree of pedagogical decisions metod" va "Credit-module strategy method". Ushbu innovatsion ta'lim metodlari talabalarda kredit-modul tizimi asosida malakalarini rivojlantirish va jamoaviy faol ishlashni tashkil etish ko'nikmalarini hosil qilishda muhim ahamiyatga ega[2].

Natija komponentida esa kredit-modul tizimi asosida baholash mezonlari va tayyorgarlik darajalari keltirilgan bo'lib, ular asosan ta'lim oluvchining o'zlashtirishining belgilangan o'rtacha bali GPA bilan belgilanadi va yetarli ball to'plagan talaba kursdan kursga o'tadi. Ushbu ko'rsatgichdan past olgan talaba kursda qoladi va bu jarayon uzluksiz nazorat va monitoring bo'yicha davom etib bakalavr yo'nalishlari uchun 8 yilga magistratura mutaxassisliklari uchun 4 yil etib belgilangan. Talabalarining kreativligini baholash quyidagi mezonlar asosida olib borildi: ijtimoiylik (ijtimoiy onggi, munosabati va ta'lim tizimidagi islohotlardan xabardorligi va h.k.), kommunikativlik (pedagogik muloqotga kirishuvchanligi, xorijiy tillarni egallanligi va pedagogik etikani amalda qo'llashi va h.k.), intellektuallik (kasbiy salohiyat, dunyoqarash va o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash va h.k.) va axborotlilik (axborot texnologiyalar bilan ishlash, ma'lumotlarni izlash, yig'ish va qayta ishlash va h.k.).

1. Reproduktiv daraja talaba kredit-modul tizimi to'g'risidagi tushunchalar mohiyatini reproduktiv darajada ifodalaydi, ilmiy bilish metodlarini yetarlicha egallamagan, ularni innovatsion kasbiy pedagogik faoliyatda qisman qo'llay oladi, yaxshi rivojlanmagan.

2. Produktiv daraja talaba kredit-modul tizimining mohiyati haqidagi tasavvurlar mavjudligini nazarda tutadi. Ammo bu tasavvurlar cheklangan va mustaqil pedagogik faoliyat olib borish uchun yetarli emas, talaba o'qituvchi rahbarligida mashg'ulotni o'tkazishda keyinchalik qo'llash mumkin bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga motivatsiyasi mavjud.

3. Qisman izlanishli darajada talabaning kredit-modul tizimi to'g'risidagi tasavvuri innovatsion kasbiy faoliyatga oid kreativ munosabati bilan xarakterlanadi. U interfaol metodlarni egallagan, ularni kasbiy faoliyatida amalda qo'llaydi, yangi g'oyalarni tekshirish prosedurasini ishlab chiqishga qodir.

4. Kreativ daraja talabaning kredit-modul tizimi to'g'risidagi hamda innovatsion kasbiy faoliga oid bilim, ko'nikma va malakalarini mantiqiy va tizimli yondashuvlar asosida pedagogik faoliyatda qo'llay bilishi, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olishi hamda nostandart pedagogik vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olishi kabilarni

nazarda tutadi.

Kredit-modul tizimi asosida texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda texnikaviy fanlarni jumladan Materialshunoslik fanini o'qitishni takomillashgan o'qitish modeli asosida tashkil qilinsa, fanning maqsadi, vazifalari va mazmuni o'qitish shaklini, o'qitish usul va uslublarni vositalarini aniqlab olish zarur bo'ladi. Materialshunoslik fanini o'qitishda maqsadni belgilashda, DTS talablari, umumta'limiy maqsadlar, tarbiyaviy maqsadlar, amaliy maqsadlar, rivojlantiruvchi maqsadlar, fanni o'qitish maqsadlari hisobga olindi. O'qitish shaklini aniqlashda o'quv mashg'ulotlari ma'ruzalar, video ma'ruzalar, seminar laboratoriya mashg'ulotlari, amaliy mashg'ulotlar, talabalarning mustaqil ishlari, kurs ishi, referatlar taqdimotlari, individual maslahatlar hisobga olingan. Ushbu jarayonni to'liq o'zlashtirgan talabalar jarayon oxirida innovasion kasbiy faoliyatga tayyor bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi sifatida yetishib chiqadi.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
2. Muxamedov Sh.M. "Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit-modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –B.: 2022 y. – 155 b.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy - metodik asoslari.: Ped. fan. dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007 y. – 45 b